

EFTALIYLAR DAVLATI VA MAHALLIY HOKIMLIKLER O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR

Rahmatova Malika Sherzodovna

Nizomiy nomidagi Toshkent
davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotasiya. Ushbu maqolada V asr o'rtalarida vujudga kelgan Eftaliylar davlati va unga tobe bo'lgan mahalliy hokimliklar o'rtasidagi munosabatlarga to'xtalingan bo'lib, Eftaliylarga rasman tobe yoki aksincha unga nomiga qaram bo'lgan amalda mustaqil mahalliy hokimliklarning faoliyati haqida.

Kalit so'zlar. davlat, markaziy boshqaruv, tobe o'lklalar, ma'muriy hududlar, hokimliklar, vassal, poytaxt, markaziy chegara hudud, boj, soliq, harbiy boshqaruv.

Markaziy Osiyo mintaqasi V asr o'rtalariga kelib bir qancha siyosiy jarayonlarga tortildi. Dastlab bu mintaqaga kirib kelgan Kidariylarni janubiy hududlar uchun Sosoniylar bilan o'z aro urushlari avj olgan bo'lsa Xiyoniylar shimoliy sharqdan kirib kelgan Eftaliylarga yengilib, bir qismi g'arbga qarab ketgan bo'lsa yana bir qismi eftaliylarga tobe bo'lib, aralashib ketishdi. Sosoniylardan yengilgan Kidariylar esa Sharqqa Hindistonga qarab ketishga majbur bo'lishdi. Shunday vaziyatda Markaziy Osiyoda Eftaliylar davlatining qaror topishi va uning mahalliy hokimliklar ustidan hukm yurgazishi mintaqada yangicha siyosiy-ijtimoiy holatni yuzaga keltirdi.

Xitoy yilnomalarida eslatilishicha, *Yeda* (Eftalit) davlati kuch-qudratga erishgan paytda (450-yillarda) unga G'arbiy o'lkalardagi *Kang'yuy* (Choch yoki Sug'd?), *Xo'tan*, *Shale/Sule* (Koshg'ar), Kucha, Qorashar kabi 30 ga yaqin kichik hukmdorliklar bo'ysunishgan²³. Garchi yilnomalarda "30 ga yaqin kichik

²³ Бичурин Н. Я. Собрание сведений... II. – С. 269.

hukmdorliklar tobe ekanligi” aytilsa-da, ayrimlarini aytmaganda ularning barchasining nomi keltirilmaydi. Yilnomalarda keltirilgan Kang‘yuy, Xo‘tan, Koshg‘ar, Kucha, Qorashardan tashqari yana o‘nlab boshqa hukmdorliklar Eftaliylar davlati tarkibida bo‘lgan. Eftaliy qo‘sishlari 449 yilda Sharqiy Turkistonda birinchilardan bo‘lib Kucha hukmdorligini, 462 yilda Koshg‘arni, 468 yildan keyin esa Xo‘tanni bosib oladi²⁴. Xususan, L.A.Borovkova Eftaliylarga *Chjuszuybo*, *Szepanto*, *Shemi*, *Bochji*, *Boxe* kabi hukmdorliklar bo‘ysungani xitoy yilnomalarida eslatib o‘tilishiga e’tibor qaratadi. Ularning geografik o‘rnii Sharqiy Turkistonning Pomir tog‘lariga tutash erlaridagi Toshqo‘rg‘on, Badaxshon va Hindikush etaklari oralig‘idagi Xorug‘, Voxon, Gibin, Bolor (Gilgit), Uchan (Chitral), Purshapur, Peshovar kabi bugungi Janubi-Sharqiy Tojikiston, Shimoli-Sharqiy Afg‘oniston va Shimoliy Pokistondagi tarixiy viloyat va tumanlarga to‘g‘ri keladi²⁵.

Ushbu hukmdorliklardan tashqari Eftaliylar Shimoli-G‘arbiy Hindistondagi Eftalit sulolasining boshqaruv markazi ilk yillarda Malva, keyinchalik Sialkot shahri bo‘ladi. M.Isomatovning yozishicha, Hindistondagi Eftalitlar hukmronligi bu arning etnik qiyofasida sezilarli darajada o‘zgarishlarga olib keladi. O‘lkada yangi etnogeografik nomlar ko‘rina boshlashida ham ko‘rsatib turibdi. VII asrda G‘arbiy Panjob “Xuna-desa” (Xunlar o‘lkasi) deb atala boshlagan bo‘lsa, Kanauj o‘lkasidan shimolda o‘rin olgan tog‘lik erlar “Hudud al-olam”da (X asr) “Haytal” nomi ostida tilga olinadi²⁶.

Eftaliylar qo‘l ostida Amudaryo – Sirdaryo oralig‘i, Sharqiy Turkiston, Shimoliy Hindiston, Kobul, Zobul, Bomiyon va atrof hududlaridagi o‘nlab hukmdorliklardan tashqari Xurosondagi Badg‘is, Juzjon, Marv, Hirot va hokazo kabi katta-kichik hukmdorliklar ham bo‘lgan. Shu tariqa xitoy yilnomalaridagi «30 ga yaqin katta-kichik hukmdorlik bo‘ysunadi» mazmunidagi ma’lumot o‘z tasdig‘ini topadi.

²⁴ Боровкова Л. А. Народы Средней Азии III-VI веков (по древним китайским и западным источникам) ..., с. 226.

²⁵ Боровкова Л. А. Народы Средней Азии III-VI веков (по древним китайским и западным источникам) ..., с. 226, 242-248.

²⁶Худуд ал-олам. – Т: Ўзбекистон, 2008. – Б. 127; Исоматов М.М. Эфталитское государство и его роль в истории Центральной Азии ..., с. 38.

Ko‘rinishidan ushbu hukmdorliklarning ko‘pchigida Buxoro, Toxariston, Shimoliy Hindistondan boshqa bir nechasida kelib chiqishi Eftaliylarga taqalmagan mahalliy sulolalar boshqaruvda bo‘lib, ular vassal sifatida o‘lpon to‘lab turishgan. Ehtimol, Buxoroda Abro‘y mansub bo‘lgan sulola, Badg‘isda Nizak Tarxonning ajdodlari, Pomir - Badaxshon va Hindikush oralig‘idagi ayrim kichik hukmdorliklar (Simotolo)²⁷, Shimoliy Hindistondagi To‘ramanning avlodlari Eftaliylar sulolasining muayyan tarmoqlari bo‘lgan.

Asosan xitoy yilnomalari, qisman esa boshqa tillardagi manbalardan kelib chiqilsa, Eftaliylar davlati muayyan bir sultanat o‘laroq markaz va voha hukmdorliklari – vassallar boshqaruvidan iborat bo‘lganligi ma’lum bo‘ladi. Bu sultanatni ma’muriy jihatdan shartli ravishda quyidagi 2 ta hududdan iborat bo‘lgan, deb hisoblash mumkin:

1) **Markaziy harbiy-ma’muriy hududlar.** Bu hudud Eftaliylar sulolasini mansub bo‘lgan yoki ittifoqdosh bo‘lgan ko‘chmanchi aholi va o‘troq mahalliy aholidan iborat bo‘lib, u markaziy hududni tashkil etgan. Ya’ni Toxariston va atroflari (Pomir – Badaxshon). Bu hududni metropoliya, ya’ni markaziy tayanch hudud. Shuningdek, eftaliylarning tayanch boshqaruv markazlari Chag‘oniyon (Denov), Naxshab va Boykent shaharlari bo‘lishi bilan birga Shimoliy Hindiston va Kobul o‘lkalarida *tegin* unvoniga ega eftaliy shahzodalar yashaydigan qarorgohlar bo‘lgan. Ular bu erda turib qaram o‘lkalardagi mahalliy hukmdorliklarni nazorat qilganlar.

2) **Tobe hududlar.** Ular Eftaliylarga bo‘ysunuvchi vassallar bo‘lib, har biri o‘z boshqaruvchi sulolasiga ega voha hukmdorliklari va qisman ko‘chmanchi siyosiy uyushmalar edi. Ya’ni Sharqiy Turkiston (markaziy qismi), Amudaryo – Sirdaryo oralig‘i va unga tutash hududlar, Xuroson va Shimoliy Hindistondagi o‘troq voha hukmdorliklari.

Bu guruhgaga garchi yozma manbalarda to‘laqonli ma’lumotlar uchramasa-da, Xorazm va Farg‘ona hukmdorliklarini ham kiritish mumkin. Ayrim tadqiqotchilar ba’zi omillarga tayanib, ushbu hududlarni Eftaliylar tarkibiga kirgan, deb

²⁷ Ekrem E. Hsüan-Tsang Seyahetnamesi’ne göre Türkistan. Basılmamış doktora tezi. Hacettepe Üniversitesi, Sosyal Bilimler Yenstitüsü. – Ankara, 2003. – S. 188.

hisoblaydilar²⁸. B.A.Litvinskiy Farg‘ona vodiysidagi mug‘xonalar va boshqa qabr turlarini, ayniqsa, mozor-qo‘rg‘onlarga yog‘och tobutlarda ko‘mish odatlaridan kelib chiqib (xitoy yilnomalariga ko‘ra bu an’ana eftalitlar orasida ham tarqalgan edi), eftalitlarning shakllanishi Farg‘ona vodiysining tog‘lik erlarida ham yuz bergen, degan to‘xtamga keldi. Buni vodiyda ko‘mish bilan bog‘liq qurum va mozor-qo‘rg‘onlar mavjudligi ham ko‘rsatib turibdi²⁹.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki Eftaliylar sulolasи davlat boshqaruvinи dastlab Markaziy Osiyo ko‘chmanchilariga xos an’analar negizida boshlab, keyinchalik mintaqaga xos o‘troq voha hukmdorliklariga xos an’analarni ham o‘zlashtirgan. Markaz – Toxariston hududida Eftaliylar sulolasи vakillari o‘tirgan. Toxariston va uning atroflari ular uchun markaziy hudud vazifasini bajarib, Valvalij (Qunduz) shahri poytaxt, Balx ijtimoiy-madaniy va diniy markaz, Chag‘oniyon, Poykent, Kobul, Sakal (Panjob vodiysi) shaharlari ma’muriy boshqaruв markazlari vazifasini bajargan. Eftaliylarga vassal 30 dan ortiq mulklar – Amudaryo-Sirdaryo oralig‘idagi Sug‘d, Buxoro, Choch, Xorazm va Farg‘ona, Sharqiy Turkistondagi Koshg‘ar, Kucha, Xo‘tan, shuningdek, Shimoliy Hindiston, Kobul va atroflari, Xuroson (Hirot, Badg‘is, Marv) o‘zlarining mahalliy sulola xukmdorlari tomonidan boshqarilib, markazga o‘lon to‘lab turishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. – М.-Л.: Изд. АН СССР. – том II. С. 269.
2. Боровкова Л. А. Народы Средней Азии III-VI веков (по древним китайским и западным источникам) ..., с. 226.
3. Худуд ал-олам. – Т: Ўзбекистон, 2008. – Б. 127; Исоматов М.М. Эфталитское государство и его роль в истории Центральной Азии ..., с. 38.

²⁸ Толстов С.П. По следам древнекорезмийской цивилизации. – М.-Л., 1948. – С. 216, 278.

²⁹ Гафуров Б. Таджики. Книга 1. – С. 263.

4. Ekrem E. Hsüan-Tsang Seyahetnamesi'ne göre Türkistan. Basılmamış doktora tezi. Hacettepe Üniversitesi, Sosyal Bilimler Yenstitüsü. – Ankara, 2003. – S. 188.
5. Толстов С.П. По следам древнекорезмийской цивилизации. – М.-Л., 1948. – С. 216, 278.
6. Гафуров Б. Таджики, древнейшая, древняя и средневековая история. Кн. 1. Душанбе, 1989. – С. 263.
7. Kurbanov A. The Hephthalites: Archaeological and Historical Analysis. PhD thesis submitted to the Department of History and Cultural Studies of the Free Univer. Berlin, 2010. – P. 52.
8. Kamolov J. Markaziy Osiyoning ilk o‘rta asrlar davri davlatchiligidagi Eftaliylar davlatining tutgan o‘rni. Tar. fan. bo‘y. fal. dok. diss. (PhD) Avtoreferati. Toshkent-2023. B. 20